



SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA SOLIQ TEKSHIRUVLARINING ZAMONAVIY USULLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Fayzulloyev Mirsaid Shuhratovich

TDIU tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7092395>

Annotatsiya: Mazkur maqolada, yashirin iqtisodiyotni oldini olish maqsadida soliq nazoratida soliq organlarini faoliyatini takomillashtirish va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, audit, soliq auditori, auditning xalqaro standartlari, normativ tahlil, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, har bir faoliyat turi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, sohaning uslubiy ta'minoti yaratib berildi. Jumladan, soliq nazorati faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda audit bo'yicha yetarli uslubiy ta'minot mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur soha bo'yicha qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari sohaning uslubiy ta'minoti yaratilganligidan dalolat beradi. Yashirin iqtisodiyotni oldini olishga yo'naltirilgan 15 ta me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va 15 ta hujjatlar loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Qabul qilingan me'yorlarda 14 ta yangi instrumentlar va 3 ta javobgarliklar belgilangan. Ish olib borilayotgan loyihalarda tovar (xizmat)larning bozor narxlarini aniqlash, insofli soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish, servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, nazorat xaridini amalga oshirishda bank kartalaridan foydalanish tartibi, avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimini joriy etish, maxsus hisobvaraqlari yuritishni bekor qilish va boshqa dolzarb masalalar nazarda tutilmoqda.

Sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash yuzasidan quydagilarni amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hisobvaraqq-fakturani joriy etilishi natijasida – 2022 yil yanvar-aprel oylarida 38,3 mln.ta elektron hisobvaraqq-faktura orqali 376,5 trln.so'mlik tovar va xizmatlar realizatsiyasi qamrab olindi (o'tgan yilning mos davriga (34,5 mln.ta EHF 316,4 trln.so'm) nisbatan 1,2 baravarga oshdi).

Onlayn NKT hamda 1 foizlik "Cashback" joriy etilishi natijasida – 2022 yil yanvar-aprel oylarida 200,9 mln.ta chek orqali 47,0 trln.so'mlik savdo tushumlari soliq





bazasiga kiritildi (o'tgan yilning mos davriga (113,1 mln.ta chek 28,6 trln.so'm) nisbatan 1,6 baravarga oshdi).

qo'shilgan qiymat solig'i zanjiri uzilishini hisoblash hamda nazorat qilish orqali – 3,2 mingta korxonaning 634 mlrd.so'mlik qo'shilgan qiymat solig'ini qoplash bo'yicha arizalari kontragentlari va o'zidagi zanjir uzilishlari sababli rad etilib, byudjetdan asossiz mablag'lar qaytarilishiga yo'l qo'yilmadi. Joriy yilning 1 may holatiga qo'shilgan qiymat solig'i zanjiri uzilishi 0,17 koeffitsientni tashkil etib, yil boshiga (0,37 koeffitsient) nisbatan 0,2 koeffitsientga kamaygan.

“E-ijara” (“ijara.soliq.uz”) elektron xizmati amaliyotga joriy etilishi natijasida – 225,9 mingta (64,2 mingta yuridik va 161,7 mingta jismoniy shaxslar o'rtasida) ijara shartnomalari davlat soliq organlarida hisobga olinishi ta'minlandi. Ijaraga beruvchilar tomonidan ushbu shartnomalar doirasida yil yakuniga qadar tahminan 393,6 mlrd.so'm soliqlar to'lanishi kutilmoqda.

Mahsulot (tovar va xizmat)larning yagona elektron milliy katalogi joriy etilishi natijasida – 255,6 mingta nomdagi mahsulotning katalogi yaratilib, joriy yilning yanvar-aprel oylarida 187,3 mingta sub'ekt tomonidan EHF orqali 45,5 mingta hamda 138,4 mingta sub'ekt tomonidan Onlayn NKT cheklari orqali 62,5 mingta MXIK kodlari aks ettirildi.

Mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi orqali – 3 turdagi mahsulotlar bo'yicha 184,2 trln.so'mlik realizatsiya amalga oshirilgan. Bugungi kunda majburiy raqamli markirovkalash lozim bo'lgan mahsulot guruhlari 6 taga yetdi.

“Cashback” tizimi joriy etilishi natijasida – 2022 yil yanvar-aprel oylarida 17,4 trln.so'mlik (Onlayn NKT orqali aylanmaning 37,0 foizi) 19,5 mln.ta chek “SOLIQ” mobil ilovasi orqali ro'yxatga olindi va 369 ming nafar fuqarolarga 72,4 mlrd.so'm “Cashback” to'lab berildi.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish, yangi tamoyillarni joriy etilish hamda jamoatchilik nazorati (“Cashback” va mukofotlash) tizimi yaratilganligi natijasida qo'shilgan qiymat solig'i tushumi 10,3 trln.so'mni va AOS tushum 825,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i 1,3 baravarga, AOS 1,2 baravarga oshdi.

Tijorat banklari tomonidan Davlat soliq qo'mitasiga Adliya vazirligida 2004 yil 3 martda 1321-son bilan ro'yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan alohida yirik miqdordagi pul mablag'lar aylanmasi bo'yicha Davlat soliq qo'mitasiga elektron axborot uzatish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan alohida yirik miqdordagi pul mablag'lari aylanmalari, shu jumladan naqd pul berilishi bo'yicha axborotlar elektron shaklda uzatilishi belgilangan.





Birinchidan, Tijorat banklari faqat yirik pul aylanmalari (yuridik shaxslar uchun BHMning 1000 barobaridan ortiq miqdordagi va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun BHMning 500 barobaridan ortiq miqdordagi, shuningdek, bank mijozlariga BHMning 500 barobaridan ortiq miqdordagi naqd pul berilishiga doir operatsiyalar bo'yicha) to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ikkinchidan, pul aylanmalari haqida ma'lumotlar jamlangan holda, har 10 kunda taqdim etib boriladi, bu esa nazoratning tezkorligiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu esa, shubhali import operatsiyalarni amalga oshirayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq nazoratidan qochish maqsadida aynan yirik miqdordan kam bo'lgan summada bank aylanmalarini amalga oshirish holatlarini oshishiga olib kelmoqda. Import operatsiyalarini nazoratini kuchaytirish maqsadida, joriy yilning 22 yanvar kuni Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi sohasida hamkorlik to'g'risida Bitim imzolangan bo'lib, Bitimda bojxona yuk deklaratsiyalari asosida import va eksport qilingan tovarlar haqidagi barcha ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasiga elektron ravishda onlayn rejimida taqdim etib borish ko'zda tutilgan.

Biroq, mazkur taqdim etilayotgan ma'lumotlar tarkibida import tovarlarni importyor tomonidan berilgan ishonchnoma asosida importyor korxona shtatida bo'lmagan (ushbu korxonada ishlamaydigan) shaxs yoki boshqa yuridik shaxs tomonidan barcha bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirgan holda olib chiqib ketilishi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas.

Xususan ilg'or davlatlarning xorijiy tajribalarni o'rganilganda qo'ydagilarni ko'rishimiz mumkin. Rossiya Federatsiyasida xufiyona iqtisodiyot iqtisodiy jinoyat sifatida malakalanib, mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchilar bevosita jinoyat kodeksi asosida jazoga tortiladilar. Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish Ichki ishlar vazirligining Korruptsiyaga qarshi kurash va iqtisodiy xavfsizlik bosh boshqarmasi zimmasiga yuklangan. Mazkur boshqarma, jinoyatlarning turlaridan kelib chiqib, choralar ko'radi yoki tegishli organi xabardor qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha tashkilotlar o'rtasida yagona axborot almashinuvi asosida dasturiy integratsiya yo'lga qo'yilgan. Tashkilotlar o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni muntazam ravishda dasturga kiritib boradi. Xufiyona faoliyat alomatlari aniqlanganda iqtisodiy jinoyatlarning klassifikatsiyalaridan kelib chiqib tegishli chora ko'riladi.





Fransiyada xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishning yangicha metodi yo'lga qo'yilgan. Xususan, Normativ-huquqiy baza bu avvalo xufiyona iqtisodiyotning nima ekanligi hamda unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarning belgilanganligi; Institutsional asos hamda ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tartibga solinganligi (integratsiyasi);

Xufiyona iqtisodiyot bo'yicha aholining madaniyatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar;

Xufiyona iqtisodiyot sub'ektlarining qonun oldida qat'iy javobgarlikka tortilishi. Bunday jinoyatga qo'l urganlarga nisbatan, hukumat tomonidan javobgarlikni yengillashtirish imkoniyatlaridan voz kechish.

Fransiyada xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashda vazirlik, idora va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda samarali faoliyat yo'lga qo'yilgan. Mazkur hamkorlik asosan ma'lumotlar almashinuvining yagona integratsiyalangan dasturi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Davlat (nodavlat) tashkilotlari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvini tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish. Mazkur hujjatga, bevosita soliqdan bo'yin tovlash holatlarini bartaraf etish hamda byudjet daromadlarini shakllantirishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida Respublikadagi mavjud tashkilotlar ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish hamda integratsiya tartib-taomillarini belgilash; Ikkinchidan, Davlat soliq qo'mitasiga real vaqt rejimida davlat (nodavlat) tashkilotlari tomonidan taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlash;

Uchinchidan, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan integratsiya natijasida olingan ma'lumotlarni inson omilisiz tahlil qilish hamda tegishli risklarga ajratish imkoniyatiga ega tizimni yaratish.

Adabiyotlar:

1. Mishustin M.V. (2010), Dlya povыsheniya kachestva nalogovogo administrirovaniya neobxodima kompleksnaya modernizatsiya nalogovoy slujb. Intervyu // Rossiyskiy nalogovyy kurer. № 22. Str. 5-9.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

